

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Usmonov	
Temuriylar davri Xorazm shaharlarining mudofaa imkoniyatlari.....	338
Sh.M.Ro'ziqulov	
1960-1980 yillarda O'zbekiston hunar-texnika ta'lim tizimida o'zgarishlar	344
E.A.Botirov	
Turkistonda bojxona ishi faoliyatida kadrlar masalasi (1917-1924 yillar)	348
A.A.Aloxunov, Z.O.Raxmanov	
Arxeologik dala qidiruvlarini olib borishda zamonaviy texnika va texnologiya usullaridan foydalanishning samarali jihatlari	353
Sh.Y.Qudratov	
Buxoro amirligida tadbirkorlikning qorako'l teri yetishtirish va savdosi to'g'risidagi ayrim mulohazalar.....	357
U.K.Yuldashev	
Oliy ta'limga qabul jarayonlarida xorijiy tajribaning qo'llanilishi	362
M.B.Abduraimova	
Processes of gold mining in Bukhara at the end of the 19th and the beginning of the 20th century	369
M.A.Мубинов	
Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами	372
A.T.Ochilov	
Buxoro vohasining paleogeografiyasi.....	378
L.N Muxamadiyeva	
Turkistonda harbiy jurnalist kadrlar tayyorlash tarixidan (1919–1924 yillar).....	383

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Erhan, A.G.Sabirdinov, G.M.Oripova	
XX asr she'riyati va G'afur G'ulom	387
T.Matyoqubova	
Tuyg'u va kechinmaning poetik jilosi	393
K.U.Kubayev	
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin	398
G.O.Ismailova	
“Qutadg'u bilig”dagi Allohning muqaddas ismlari va ularni tarjimada qayta yaratish masalalari	402
L.B.Ikromova	
Adabiy asarlarda maqollarning o'rni	406
N.U.Ochilova	
Badiiy matnda realiyalarni tarjima qilish xususida.....	411
X.Ч.Чамолова	
Таъсирпазирии Бобур аз адабиёти форсии тоҷикӣ.....	417
M.Z.Djalalidina	
Comprehending the mysteries of postmodern literature: the art of the word by muriel spark	421
X.B.Hasanova	
Xudoyberdi To'xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida qo'llangan fentezi janrining tasnifi ...	425
G.O.Abdujalilova	
Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasida milliylikning aks etishi	429

TILSHUNOSLIK

R.R.Sayfullaeva, N.I.G'aybullayeva	
Konseptual tahlil usuli va birliklari xususida.....	432
M.Y.Mamajonov	
Muloqot psixolingvistik hodisa sifatida.....	438
Sh.M.Iskandarova, M.X.Komilova	



UO'K:821.512.141.09

BAHODIR QOBULNING “ENASHAMOL” QISSASIDA MILLIYLIKNING AKS ETISHI

ОТРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОСТИ В ПОВЕСТИ БАХОДИРА КАБУЛА
“ЭНАШАМОЛ”

THE REFLECTION OF NATIONALITY IN BAHODIR KABUL'S STORY “ENASHAMOL”

Abdujalilova Gulmiraxon Odiljon qizi 
Farg'ona davlat universiteti magistranti**Annotatsiya**

Bugungi kunda zamonaviy o'zbek nasriga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan yozuvchilar ijodini o'rganish, tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi o'zbek adabiyoti, xususan, asardagi badiiyat, milliylik asosiy masalalardan biri sanaladi. *Milliylik yozuvchining g'oyaviy-badiiy qarashlarini o'zida aks ettiradi. Ijodkor bir xalq vakili sifatida yaratgan asarlarida o'z mintalitetiga xos bo'lgan milliylik unsurlarini asarlarida aks ettiradi. Qahramonlarning harakteri, tashqi tuzilishi, yashash tarzi orqali ijodkor o'zi mansub bo'lgan xalq vakillariga xos bo'lgan milliy xususiyatlarni ko'rsatib beradi.* Ushbu maqolada badiiy asardagi milliylik masalasi, milliylik bo'yog'ining badiiy asardagi o'rni, milliy mentalitetga xos detallar, urf-odatlar o'rganildi. Iste'dodli yozuvchi Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasi tadqiq qilindi. Yozuvchi ijodidagi o'ziga xoslik, milliylik unsurlarining o'ziga xos tarzda keltirilishi aniqlandi. “Enashamol” qissasida yozuvchi keltirgan badiiy detallar, urf-odatlar orqali milliy mafkurani ko'rsatib bergan.

Аннотация

Сегодня изучение и исследование творчества писателей, внесших значительный вклад в современную узбекскую прозу, является одним из наиболее актуальных вопросов. Современная узбекская литература, в частности, художественность в творчестве, национализм считаются одними из главных проблем. Национализм отражает идейно-художественные взгляды писателя. Художник как представитель народа отражает в своих произведениях элементы национализма, свойственные его менталитету. Через характер, внешнее строение и образ жизни героев автор показывает национальные особенности, свойственные представителям народа, к которому он принадлежит. В данной статье изучен вопрос национальности в художественном произведении, место национального колорита в художественном произведении, детали и традиции, характерные для национального менталитета. Исследован рассказ «Энашамол» талантливого писателя Баходира Кабула. Определено, что своеобразие творчества писателя, элементы народности представлены уникальным образом. В рассказе «Энашамол» автор показывает национальную идеологию через художественные детали и традиции.

Abstract

Today, studying and researching the works of writers who have made a significant contribution to modern Uzbek prose is one of the most urgent issues. Current Uzbek literature, in particular, the artistry in the work, nationalism is considered one of the main issues. Nationalism reflects the ideological and artistic views of the writer. The artist, as a representative of a people, reflects the elements of nationalism characteristic of his mentality in his works. Through the character, external structure, and way of life of the characters, the creator shows the national characteristics typical of the representatives of the people to which he belongs. In this article, the issue of nationality in the artistic work, the place of the national color in the artistic work, the details and traditions specific to the national mentality were studied. The story “Enashamol” by the talented writer Bahodir Qabul was researched. It was determined that the originality of the writer's work, the elements of nationality are presented in a unique way. In the short story “Enashamol”, the author shows the national ideology through artistic details and traditions.

Kalit so'zlar: qissa, milliylik, detal, milliy harakter, mafkura, mentalitet, bo'yoq**Ключевые слова:** рассказ, национальность, деталь, национальный характер, идеология, менталитет, колорит.**Key words:** story, nationality, detail, national character, ideology, mentality, color**KIRISH**

Adabiyotshunoslikda milliylik va uni aks ettirgan asarlarni tadqiq qilish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Adabiyotda milliylikning aks ettirilishi, xususan, uning badiiy asardagi vazifasi, tarixiylik tamoyillari bilan aloqadorligini o'rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Har bir

millat, elatning o'ziga xos rasm-rusumlari, urf-odatlari, an'analari mavjud. Ushbu milliylik belgilari sababli ma'lum bir xalq vakillari bir-biridan farq qiladi. Zero, milliylik ular o'rtasidagi farqni ko'rsatib beruvchi asosiy unsur sanalanadi.

Ijodkor bir xalq vakili sifatida yaratgan asarlarida o'z mentalitetiga xos bo'lgan milliylik unsurlarini birmuncha aks ettiradi. Qahramonlarning xarakteri, tashqi tuzilishi, yashash tarzi orqali ijodkor o'zi mansub bo'lgan xalq vakillariga oid milliy xususiyatlarni ko'rsatib beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Badiiy asardagi milliylik masalasi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Izzat Sulton, To'xta Boboyev, Hotam Umurov kabi adabiyotshunos olimlar o'zlarining asarlarida milliylik masalalariga to'xtalib o'tishgan. Asarda milliy harakter, milliy ong, milliy mafkuraning qanchalik zarurligi va o'rnini amaliy isbotlashgan.

Adabiyotning xalqchilligi uning milliyligini taqozo qiladi. Chunki xalq hayoti bilan mustahkam bog'langan adabiyot har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlarini, ruhiyatini, fikrlash, yashash tarzini akslantirishi tabiiydirki, bu - adabiyotning milliylikni vujudga keltiradi.[3,97]

Adabiyotshunos To'xta Boboyev ta'kidlaganidek, adabiyotning milliy xususiyatlari millatlar hamda xalqlarning o'ziga xos alomatlarini ya'ni qahramonlarning tili, tashqi ko'rinishi, kiyim-kechagi, urf-odati xalqning milliy manfaatlarini qanchalik aks ettirganligi bilan aniqlanadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bahodir Qobul o'z asarlarida, o'zbek xalqining uzoq va boy o'tmishi, urf-odatlari, an'ana va odatlarini o'ziga xos mahorat bilan tasvirlaydi. "Enashamol" qissasidan olingan quyidagi parcha orqali yuqoridagi fikrlar o'z isbotini topgan.

"Qishning uzun oqshomlarida uy ichida paxta chuvish rasm bo'ladi. Qo'lda chivilgan paxtani gul paxta, magazinnikini toy paxta deyishadi. Odatda, gul paxta yumshoqligi uchun bo'lsa kerak, faqat boshtag – yostiqlargagina solinadi. Kechki ovqatdan keyin opam chuvish uchun opachalarimga ikki, ukam va singlimga bir changaldan paxta beradi. Meni tegishimni Enam belgilaydi. O'sha oqshom tegishimni tezda chuvis, aslida paxtani shundayicha Enamga oldilariga surib, topshirib, o'rnimga kirib yotib olgandim. Enam hech nima bo'lmagandek, xelvagay yenglariga bekitdilar. Odatda, bu yerda chivilgan paxta bo'ladi." [2.5]

Mazkur parchada xalq turmush tarzi, oila muhiti paxta detali yordamida yoritilgan. Yostiq umuminsoniylik tamoyiliga ko'ra barcha xalqlarga xos. Lekin yozuvchi uning tayyorlash texnikasini keltirishi orqali milliy an'anani keltirgan.

"Chopon ostidan chiqib, tokchada turgan urchuq va xanjalani olib kelib beraman. Xanjala – yigirishga tayyorlangan, ungacha qayta-qayta yuvilib, titilgan va bir-biriga ulanib, uzun arqon holatga kelgandan keyin, ochilgan katta atirguldek chiroyli qilib, yo'q, magazinni kulchasi – bulichkaga o'xshatib bilakka moslab o'ralgan, o'rtasi bilaguzukdek teshik taxlangan yung bo'lagi. Xanjala yigirilsa ip bo'ladi, ip yig'lsa – kalava." [2.6]

Chopon qadim zamonlardan beri asosiy milliy kiyim sifatida foydalanib kelinmoqda. Yuqoridagi parchada asar qahramonining chopon ostidan chiqib, buvisi aytgan yumushini bajarishi orqali bolakaylarga xos bo'lgan milliy xarakterni ko'rish mumkin.

Xanjala, kalava kabi buyumlar bugungi texnika rivojlanayotgan davrda o'z qiymatini yo'qotdi. Lekin shunday bo'lishiga qaramay ba'zi olis qishloqlarimizda hali ham saqlanib qolgan. Yozuvchi yuqoridagi jumlada bunday uskunalarni aks ettirish orqali unutilayotgan milliy hunarmandchilik asboblarini yodga soladi.

"Qo'limdan ushlab toy-toy qilishgani yodimga tushadi.

Enamni orqa qilib, choponning ichiga kirib ketaman. Enamni bellaridan quchoqlab olaman. Kulatalari, kultuvshakllari ustidan tushib kelgan sochpopuklariga osilgan kalitu jangul-jungul g'ubbachalarni qayta-qayta sanayman. Enam xelvagay yenglari ichidan chiqarib, jo'ra-jo'ra o'ynanglar deb bergan ikkita quyuncha bilan o'ynayman". [2.34]

Bolalalik paytida inson dunyoni o'zining sof xayoloti orqali anglaydi. G'am, alam, qayg'u kabi hislarni to'laqonli anglab yetmaydi. Aynan inson umrining bu davrini sog'inib, orziqib eslaydi. Ijodkor birgina "Tosh ustida o'tgan go'dakligimni eslayman" jumlasini keltirishi orqali beg'ubor bolalik yillarini yodga soladi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

O'zbek milliy an'alaridan hisoblangan turli xil o'yinlar, rasm-rusumlar mavjud. Yozuvchi aynan "toy-toy", "jo'ra-jo'ra" kabi o'zbek milliy o'yinlarini keltirib o'tgan. Shu orqali asarga milliylik bo'yog'ini bergan. Bu esa asarga estetik zavq-shavq bag'ishlagan.

O'zbek milliy an'alarida ayollarning sochlarini mayda qilib o'rish rasm bo'lgan. Aynan ayollar sochlarini uzun holda qirqkokil qilishgan. Uning uchiga esa jangul-jungul g'ubbachalar osishgan. Kulata, kultuvshak Voha ayollariga xos bo'lgan bosh kiyimlardan hisoblanadi. "Kulatalari, kultuvshaklari ustidan tushib kelgan sochpopuklariga osilgan kalitu jangul-jungul g'ubbachalarni qayta-qayta sanayman". Yozuvchi ushbu jummalarni aks ettirishi orqali ayollarga xos milliy ko'rinishlarni ifoda etgan. Shu bilan bir qatorda bolakaylarning naqadar sho'x-shaddod bo'lishini, buvilariga ham tinchlik bermasligini ko'rsatib bergan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, badiiyatda milliylik asosiy o'rinni egallaydi. Zero, bir xalqning tarixini, o'zligini ko'rsatib berishda milliylik asosiy unsurdir. Iste'dodli yozuvchi Bahodir Qobul asarlarida milliylik, milliy mafkura yetakchilik qiladi. Asarlarida milliy urf-odatlar, milliy liboslar, milliy qahramon masalasi, milliy o'yinlar yetakchilik qiladi. Yozuvchi o'z asarlarida milliylik bo'yog'ini kuchaytirishi orqali bugungi kunda unutilayotgan milliy mafkurani eslatmoqchi bo'ladi

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. -Toshkent, "O'zbekiston"-2001.-560 b.
2. Qobul B.Enashamol. -Tezmiz-Shahrisabz-Qarshi, 2008. -43 b.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi, Toshkent, 2004.-264 b.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. -Toshkent, 2005. -272 b.